

(Mikroqarz ofertasi – O‘zbek tilida)

JISMONIY SHAXSLARGA MIKROQARZ AJRATISH BO‘YICHA OMMAVIY OFERTA

Mazkur Oferta AT “Aloqabank” (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslar bilan “Mikroqarz” shartnomasini (bundan buyon matnda “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzish bo‘yicha rasmiy taklifi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs Oferta shartlari bilan tanishib to‘liq va e’tirozsiz aksept qilganidan so‘ng Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Qarz oluvchining Mikroqarzning qaytmaslik xatarini sug‘urtalash bo‘yicha amalga oshirgan to‘lovi Ofertani akseptlash deb baholanadi.

1. ATAMALAR

1.1. Mazkur ofertada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Mikroqarz – Bank tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, muddatlilik va ta‘minlanganlik tamoyillari asosida, milliy valyutada, jismoniy shaxslarga (qarz oluvchilarga), mazkur ofertada nazarda tutilgan hamda Mikroqarzning individual shartlarida belgilangan shartlar asosida Bank tomonidan qarz oluvchiga taqdim etiladigan ma‘lum miqdordagi pul mablag‘lari.

Qarz oluvchi – Mikroqarzdin foydalanish istagida bo‘lgan, Mikroqarz rasmiylashtirish uchun Bankka ariza taqdim etgan va mazkur oferta asosida mikroqarz rasmiylashtiruvchi jismoniy shaxs.

Mikroqarz ofertasi – Bank tomonidan tasdiqlangan, Bank tomonidan keng ommaga e‘lon qilingan, unda ko‘rsatilgan shartlar asosida mikroqarz ajratish bo‘yicha taklif;

Mikroqarzning individual shartlari – Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz olishda aks ettiriladigan va tasdiqlangan Bank tomonidan Qarz oluvchi uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasi doirasida Mijozga mikroqarz taqdim qilishning muayyan shartlari (summasi, muddati, foiz stavkasi va h.k.). Mikroqarzning individual shartlari har bir Qarz oluvchi uchun mazkur Mikroqarz ofertasining **1-ilovasida** keltirilgan shaklda tasdiqlanadi.

Kredit arizasi – Qarz oluvchiga Mikroqarz taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida Qarz oluvchi tomonidan (potensial qarz oluvchi tomonidan) Bankka yuboriladigan va Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda so‘ralayotgan Mikroqarz to‘g‘risida umumiy axborotni o‘z ichiga olgan hujjat (Bankning mobil ilovasi va (yoki) veb saytida tuziladi).

Bank kartasi – tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to‘lovlarni amalga oshirishda bank karta hisobvarag‘idagi mablag‘lar doirasida tegishli operatsiyalarni amalga oshirish va/yoki naqd pul mablag‘larini olish huquqini beruvchi Bank tomonidan emissiya qilingan bank debet kartasi.

Veb servis – Bank tomonidan mikroqarz ajratish uchun foydalaniladigan Bankning elektron dasturiy vositasi.

Mikroqarz bo‘yicha ta‘minot – Mikroqarz summasining 125% dan kam bo‘lmagan summada kredit so‘ndirilmasligi xavfini sug‘urtalash polisi yoki mikroqarz summasining 100% dan kam bo‘lmagan summada uchinchi shaxs kafilligi (sug‘urta polisi yoki uchinchi shaxs kafilligi mikroqarz shartlaridan kelib chiqib belgilanadi).

Aksept – Qarz oluvchining roziligini bildirishga, Mikroqarz olish uchun Bank tomonidan taklif qilingan shartlarni qabul qilishga yo'naltirilgan harakatlari.

Mikroqarzning to'liq qiymati – Mikroqarz olish bilan bog'liq to'lovlarning haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan shartlarda qarz ajratish majburiyatini, Qarz oluvchi esa ajratilgan mikroqarz va unga hisoblangan foiz summalarini Shartnomaning **2-ilovasi** bo'lgan Qarzni qaytarish jadvalida (bundan buyon matnda "**Jadval**" deb yuritiladi) ko'zda tutilgan muddatlarda qaytarish majburiyatini o'z zimmlariga oladi.

3. UMUMIY QOIDALAR

3.1. Mikroqarz Qarz oluvchining arizasida ko'rsatilgan lekin Qarz oluvchining daromadlari va qarz yukini inobatga olgan holda Bank tomonidan belgilangan mikroqarzning maksimal miqdoridan oshmagan miqdorda ajratiladi.

3.2. Mikroqarz Qarz oluvchining Kredit arizasida ko'rsatilgan, lekin (),
(muddat) (so'z bilan)

oydan oshmagan muddatga ajratiladi.

3.3. Mikroqarz Qarz oluvchining Mikroqarz olish uchun ariza taqdim qilish jarayonida ko'rsatilgan tegishli bank kartasiga o'tkazib beriladi va shu kundan boshlab Mikroqarz ajratilgan deb tan olinadi.

3.4. Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi – yillik () foizni tashkil
(miqdori) (so'z bilan)

etadi. Bunda, foizlar mikroqarz ajratilgan kundan boshlab mikroqarzning asosiy qarzni to'liq qaytarilgan kunigacha uning qoldiq summasiga kunlik hisoblab boriladi. Foizlar yiliga 365 kunlik asosda hisoblanadi.

3.5. Mikroqarzning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning **1-ilovasi**ga asosan hisoblanadi va Mikroqarzning individual shartlarida batafsil aks ettiriladi.

3.6. Mikroqarz olish uchun Qarz oluvchi tomonidan Bankka yo'llangan arizani Qarz oluvchi tomonidan yuborilganligi faktini tasdiqlash uchun, Qarz oluvchi uning shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berishga Bankka roziligini hamda Qarz oluvchi nomiga uchinchi shaxslar tomonidan mikroqarz rasmiylashtirishni oldini olish maqsadida ma'lumotlar olinishiga roziligini bildiradi.

3.7. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi quyidagilarga roziligini bildiradi:

- aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalarini va bildirishnomalarni jo'natishga;

- Davlat personellashtirish markazidan olingan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzcard, Humo va boshqalar) tijorat banklari va

boshqa tashqi manbalardan shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni olishga;

3.8. Qarz oluvchining mikroqarz bo'yicha majburiyatlari mikroqarz ajratish shartlaridan kelib chiqib uchinchi shaxs kafilligi bilan mikroqarzning 100% miqdorida yoki kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi bilan mikroqarzning 125% miqdorida ta'minlanadi.

3.9. Sug'urta mukofoti to'lovi Qarz oluvchining xohishiga ko'ra o'z mablag'lari hisobidan yoki ajratilayotgan mikroqarz hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda, Qarz oluvchi sug'urta mukofoti to'lovini amalga oshirish manbasini mikroqarz rasmiylashtirish jarayonida ixtiyoriy belgilaydi, agarda sug'urta mukofoti to'lovi mikroqarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilsa, rasmiylashtirilayotgan mikroqarz summasi sug'urta mukofoti to'lovi miqdoriga kam miqdorda mijozning bank kartasiga o'tkaziladi. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchining o'z mablag'i hisobidan amalga oshirilganda Mikroqarz olish uchun ariza taqdim qilish jarayonida ko'rsatilgan bank kartasidan yechib olinadi.

3.10. Mikroqarz ta'minoti sifatida kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi qabul qilingan hollarda, rasmiylashtirilayotgan Mikroqarzning ta'minoti hisoblangan kreditning qaytmaslik xataridan sug'urta polisi onlayn shaklda taqdim etiladi va ushbu polis bank ma'lumotlar bazasida saqlanadi.

4. MIKROQARZNI QAYTARISH TARTIBI

4.1. Mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni qaytarish Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov jadvali (2-ilova)ga asosan har oy Mikroqarzning individul shartlarida ko'rsatilgan qaytarish usulida (differensial/annuitet), mikroqarzdand foydalangan oyning keyingi oyidan boshlab amalga oshiriladi.

4.2. Mikroqarzning har oydagi to'lov sanasi haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e'lon qilingan bayram kunlariga to'g'ri kelganda to'lov sanasi keyingi ish kuniga ko'chiriladi.

4.3. Mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni muddatidan avval qaytarilishiga ruxsat etiladi. Mikroqarzni muddatidan avval qaytarilganligi uchun qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

4.4. Mikroqarz va unga hisoblangan foizlar bo'yicha qarzdorlikni qaytarish Qarz oluvchining ish haqi, boshqa daromadlari va tushumlaridan mablag'larni o'tkazish orqali, naqd pul kirim qilish orqali, bank kartalaridan mablag'larni o'tkazish orqali, Qarz oluvchining Mikroqarz bo'yicha Bankdagi tranzit hisobvarag'iga o'tkazib berish orqali, avtomatik tarzda bank kartalaridan yechish yo'li orqali hamda infokiosklar, mobil ilovalar yoki boshqa elektron to'lov tizimlari yordamida to'lov qilish orqali amalga oshiriladi.

4.5. Mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni qaytarish uchun amalga oshirilgan to'lov summasi Mikroqarz bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, kelib tushgan mablag' quyidagi keltirilgan ketma-ketlikda qarzdorlik summasini qoplash uchun yo'naltiriladi:

- birinchi navbatda – asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

- ikkinchi navbatda – joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

- uchinchi navbatda – neustoyka (jarima, penya);

– to‘rtinchi navbatda – Bankning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

4.6. Mikroqarz to‘lovi uchun Jadvalda belgilangan sanadan oldin yoki Mikroqarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik summasidan ortiqcha mablag‘ kelib tushsa, birinchi navbatda muddatli asosiy qarzdan tashqari barcha qarzdorliklar (muddati o‘tgan asosiy qarz, muddati o‘tgan foiz, neustoyka, jarima, penya, Bankning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari, joriy davr uchun hisoblangan foizlar, joriy davr uchun asosiy qarz) so‘ndiriladi, undan so‘ng ortib qolgan mablag‘dan nabatdagi to‘lov sanasiga qadar hisoblanishi kutilayotgan foiz summasiga teng mablag‘ni ushlab qolgan holda ortiqcha qismi Mikroqarzning asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltiriladi.

4.7. Qarz oluvchidan Mikroqarzning to‘lovi uchun Mikroqarzni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa va kelib tushgan mablag‘ning ortiqcha qismini Mikroqarzning asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltirilganda Mikroqarzni qaytarish jadvali qayta rasmiylashtirilmaydi.

4.8. Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz va unga hisoblangan foizlar o‘z vaqtida qaytarilmaganda Bank Mikroqarz va u bo‘yicha hisoblangan foizlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarish choralari ko‘radi.

5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning majburiyatlari:

5.1.1. Shartnomada belgilangan shartlar va miqdor doirasida Qarz oluvchiga pul mablag‘larini uning bank kartasiga o‘tkazish orqali berish;

5.1.2. Qarz oluvchiga kredit hisobvarag‘ini ochish;

5.1.3. Mikroqarzni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu Mikroqarz bo‘yicha mablag‘lar berishni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga Mikroqarz berish to‘xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan Shartnomada ko‘rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabarnoma yuborish;

5.1.4. Mikroqarz muddatidan oldin undiriladigan hollarda bu to‘g‘risida Qarz oluvchini Shartnomada ko‘rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabardor qilish;

5.1.5. Bank tomonidan Mikroqarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorliklarni so‘ndirish uchun Qarz oluvchining bank hisobvarag‘i va (yoki) omonatidan (shu jumladan, bank kartalaridan) mablag‘lar Qarz oluvchining topshirig‘isiz hisobdan chiqarilganda, ushbu mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarz oluvchiga uning hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda Shartnomada ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali xabarnoma (ma‘lumotnoma) yuborish.

5.2. Bankning huquqlari:

5.2.1. Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarilishi to‘g‘risida ma‘lumotlarni Kredit byurolari va Kredit ma‘lumotlarining davlat reestriga taqdim etish;

5.2.2. Mikroqarz bo‘yicha to‘lovlar haqida Qarz oluvchiga xabar berish uchun Shartnomada ko‘rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish;

5.2.3. Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan Mikroqarzni (shu jumladan, hisoblangan foizlarni) muddatidan oldin qaytarishni talab qilish, undirib olish:

5.2.3.1. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;

5.2.3.2. Qarz oluvchiga har qanday shaklda jinoyat ishlari yoki fuqarolik ishlari bo'yicha Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan da'volar qo'zg'atilgan bo'lsa;

5.2.3.3. Bankda ushbu Shartnoma bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish, tasarruf etishda firibgarlik holatlari bilan bog'liq shubhalar mavjud bo'lganda;

5.2.3.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.4. Qarz oluvchining Bankda hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan Mikroqarz bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni va barcha hisoblangan neustoykalarni akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish);

5.2.5. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiya (shaxsni tekshirish) jarayonini amalga oshirish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Qarz oluvchi bilan bog'lanish;

5.2.6. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan Qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish;

5.2.7. Qarz oluvchining telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari orqali bog'lanish va ularni yozib olish, Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish to'g'risida xatlar, elektron pochta xabarlar va SMS-xabarlarini yuborish;

5.2.8. O'z hisobidan, Qarz oluvchini xabardor qilmasdan, onlayn Mikroqarzni qaytarilmasligi xavfini sug'urta qilish;

5.2.9. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda taqdim qilingan sug'urta polisi bo'yicha Mikroqarz qisman yoki to'liq qoplab berilganda, sug'urta to'voni to'langan to'lov miqdori doirasida Shartnoma bo'yicha regress talab huquqini bir tomonlama Sug'urta qiluvchiga o'tkazish (subrogatsiya).

5.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:

5.3.1. Mikroqarz va u bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lov jadvaliga asosan o'z vaqtida to'lash;

5.3.2. Olingan Mikroqarzni, Mikroqarzdin foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi Bankning so'rovini olgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida to'lab berish;

5.3.3. Familiyasi yoki ismi, telefon raqami, ro'yxatdan o'tgan manzili, yashash joyi, passport yoki ID karta ma'lumotlari o'zgarganda va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlar haqida 3 (uch) ish kuni ichida Shartnomada belgilangan aloqa kanallari orqali yoki Bankning xizmatlar ko'rsatish markazlariga borgan holda Bankka xabar berish;

5.3.4. O'ziga nisbatan huquqni muhofaza qilish organlari, nazorat qiluvchi organlar yoxud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari,

iqtisodiy, moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan boshlab Bankka 2 (ikki) ish kuni ichida xabar berish;

5.3.5. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash uchun chiqib ketayotgan holda Mikroqarzning asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval qaytarish;

5.3.6. Tijorat banklarida ochilgan barcha bank hisobvaraqlaridan Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur summani akseptsiz hisobdan chiqarish to'g'risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so'zsiz talab qo'yish huquqini Bankka taqdim etish;

5.3.7. Mikroqarz ajratish jarayonida texnik yoki boshqa sabablarga ko'ra taqdim etilishi belgilangan mablag'lardan ortiqcha bo'lgan mablag'lar bank kartasida aks ettirilsa Bank mazkur (ortiqcha) mablag'larni Qarz oluvchining har qanday bankda ochilgan bank kartasidan akseptsiz hisobdan chiqarish to'g'risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so'zsiz talab qo'yish hamda Mikroqarz mablag'lari o'tkazib berilgan bank kartasiga taqiq yoki talab qo'yish huquqini Bankka taqdim etish.

5.4. Qarz oluvchining huquqlari:

5.4.1. Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda Mikroqarz berilishini talab qilish;

5.4.2. Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab pul mablag'lari bank kartasiga tushgunga qadar Mikroqarzni olishdan bepul voz kechish;

5.4.3. Mikroqarzni istalgan vaqtda muddatidan oldin jarima sanksiyalarisiz so'ndirish;

5.4.4. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni Bankka to'liq qaytarilgan holda ushbu Shartnomani muddatidan avval bekor qilish.

6. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI

6.1. Quyidagi hodisalarning har biri majburiyatlarning bajarilmasligi holati hisoblanadi:

6.1.1. Mazkur Mikroqarz ofertasida va ofertaning ajralmas qismi hisoblangan jadvalda belgilangan muddatlarda mikroqarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlar amalga oshirilmaganligi;

6.1.2. Qarz oluvchi tomonidan qasddan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni bergan holda Bankni chalg'itish;

6.1.3. Bankning xulosasiga ko'ra, kredit bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilgan ta'minotning qisman yoki to'liq o'z qiymati (kuchi)ni yo'qotganligi;

6.1.4. Qarz oluvchining to'lovga qodirligi yomonlashganligi yoki Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan aniq axborotning yashirilishi;

6.1.5. Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar;

6.1.6. Shartnoma shartlarining buzilishi.

7. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

7.1. Taraflardan biri Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, aybdor Taraf ikkinchi Tarafga yetkazilgan zarar

qismini qoplaydi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga va Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

7.2. Qarz oluvchi Shartnomaga asosan Mikroqarzning asosiy qismini qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan taqdirda Mikroqarzning muddati o'tgan asosiy qismiga har bir kechiktirilgan kun uchun mikroqarzning foiz stavkasining **1,5 barobari** miqdoridagi (biroq, 50 foizdan oshmagan) yillik stavkada hisoblanadigan, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.3. Qarz oluvchi Shartnomaga asosan Mikroqarz uchun hisoblangan foizlarni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining **0,7 foizi** miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.4. Shartnomaning **7.2 va 7.3-band**larida ko'rsatilgan penyalar Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan memorial order (tegishli hollarda to'lov talabnomasi) orqali akseptsiz tarzda undirib olinadi.

7.5. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda neustoykadan tashqari yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

7.6. Bank Mikroqarz berish majburiyatini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda Qarz oluvchi oldida qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

7.7. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun hisoblangan neustoykani to'lash majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

7.8. Qarz oluvchining telefon raqami o'zgarganligi, ishlamaganligi yoki yangi raqamini Bankka taqdim qilmaganligi sababli Qarz oluvchiga SMS-xabarlar bormaganligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH

8.1. Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida vujudga keladigan kelishmovchiliklar Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda va/yoki Qarz oluvchi nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sudda ko'rib chiqiladi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

9.2. Shartnoma Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

10. ANTIKORRUPSIYAGA OID SHARTLAR

10.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu Shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir

o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi ta'qiqlanadi.

10.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu Shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

10.3. Agar shartnoma Taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi Tarafga bunday harakat sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shaklda (yoki Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi rahbariga yoki Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi direktoriga aloqa kanallari yordamida) xabar berish majburiyatini oladi.

10.4. Xabarni olgan Taraf haqiqatan korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

10.5. Ushbu bo'lim qoidalari Taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa Taraf qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa Taraf Shartnomani bir tarafdama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

10.6. Pora berish evaziga ikkinchi Taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini Shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan Taraf ikkinchi Tarafga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

11. YAKUNIY SHARTLAR

11.1. Shartnoma elektron tarzda tuzilib, Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz ofertasini akseptlash orqali tasdiqlanadi va yozma kurinishidagi hujjatning yuridik kuchiga ega bo'ladi.

11.2. Shartnoma bo'yicha Taraflarning tartibga solinmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

11.3. Taraflar o'rtasidagi xat-xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin: Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) yozma shaklda jo'natish yoki Qarz oluvchining elektron pochtaga, telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlariga xabar jo'natish yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron xabar jo'natish.

11.4. Qarz oluvchi amalga oshirilgan to'lovlar va kredit qarzdorligi miqdori (asosiy qarz, foiz, penya qarzdorligi va muddati o'tgan qarzdorliklar) haqida, shuningdek Shartnoma bilan bog'liq boshqa holatlar bo'yicha uyali aloqa vositalari orqali SMS-xabarlar yuborilishiga Bankka o'z roziligini bildiradi.

12. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

AT "Aloqabank"

Manzil: _____

MFO: _____

STIR: _____

Tel: _____

13. QARZ OLUVCHI MANZILI VA REKVIZITLARI

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____


Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____



MIKROQARZNING INDIVIDUAL SHARTLARI

<p style="text-align: center;">Mikroqarzning to'liq qiymati</p> <p style="text-align: center;">_____ (_____) foiz <i>(miqdori) (so'z bilan)</i></p>

Mikroqarz miqdori: _____ (_____) so'm.
(summa) (summa so'z bilan)

Mikroqarz muddati: _____ (_____) oy.
(muddat) (so'z bilan)

Mikroqarzni so'ndirishning oxirgi muddati: ____ . ____ . ____ yil.
(sana)

Mikroqarz valyutasi: **O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi;**

Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi: Yillik _____ (_____) foiz.
(miqdori) (miqdor so'z bilan)

Mikroqarzdanda foydalanganlik uchun foiz stavkasi turi taraflarning kelishuviga ko'ra:
o'zgaruvchi/o'zgarmas.

Mikroqarz bo'yicha to'lovlarni to'lash sanasi: har oying _____ sanasigacha.
(sana)

Mikroqarzni ajratish shakli: Qarz oluvchining nomiga emissiya qilingan
XXXX XXXX XXXX XXXX raqamli bank kartasiga o'tkazib berish yo'li orqali.
(karta raqami)

Mikroqarzni qaytarish usuli: Shartnomaga ilova qilingan differensial/annuitet
 usulda hisoblangan to'lov grafigiga muvofiq.

Mikroqarz ta'minoti: [XXXXXXXXXX XXXXXXXXXXXX XXXXXXXXXXXXning kafilligi / Mikroqarzning
 qaytmaslik xataridan " _____ " sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi]
(ta'minot nomi)

Mikroqarzning to'liq qiymati _____ (_____) foizni tashkil qiladi
(miqdori) (miqdor so'z bilan)

va u quyidagi to'lovlarni hisobga olib hisoblanadi:

a) Mikroqarzning asosiy qarzi – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)

b) Foizlar bo'yicha to'lovlar – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)

c) Sug'urta to'lovlari – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)

d) Garov mulkini baholash bo'yicha to'lovlar – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)

e) Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank
 xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat
 banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning
 1-ilovasiga asosan boshqa to'lovlar – _____ (_____) so'm, ____ tiyin.
(summa) (summa so'z bilan)

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____

Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____



MIKROQARZNI QAYTARISH GRAFIGI (Namuna)

Ushbu mikroqarzni qaytarish javdali ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Mikroqarz summasi 5 000 000 UZS
Mikroqarz yillik foizi 26,00%
Mikroqarz muddati (oy) 12
Imtiyozli davr (oy) 0

MFO: 00401
To'lov ID kodi: xxxxxxxxxxxx

№	To'lov sanasi	Mikroqarz qoldig'i summasi	Asosiy qarzni qaytarish	Mikroqarz foizi	Bir oylik jami to'lov
				26%	
1	15.03.2024	5 000 000,0	416 666,7	103 287,7	519 954,3
2	15.04.2024	4 583 333,3	416 666,7	101 210,0	517 876,7
3	15.05.2024	4 166 666,7	416 666,7	89 041,1	505 707,8
4	15.06.2024	3 750 000,0	416 666,7	82 808,2	499 474,9
5	15.07.2024	3 333 333,3	416 666,7	71 232,9	487 899,5
6	15.08.2024	2 916 666,7	416 666,7	64 406,4	481 073,1
7	15.09.2024	2 500 000,0	416 666,7	55 205,5	471 872,1
8	15.10.2024	2 083 333,3	416 666,7	44 520,5	461 187,2
9	15.11.2024	1 666 666,7	416 666,7	36 803,7	453 470,3
10	15.12.2024	1 250 000,0	416 666,7	26 712,3	443 379,0
11	15.01.2025	833 333,3	416 666,7	18 401,8	435 068,5
12	15.02.2025	416 666,7	416 666,7	9 200,9	425 867,6
	JAMI:		5 000 000,0	702 831,1	5 702 831,1

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____


Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____



(Mikroqarz ofertasi – Rus tilida)

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА

О ПРЕДОСТАВЛЕНИИ «МИКРОЗАЙМА» ФИЗИЧЕСКИМ ЛИЦАМ

Настоящая Оферта является официальным предложением АТ «Алокабанк» (далее – «Банк») о заключении договора «Микрозайма» (далее – «Договор») с физическими лицами.

Договор считается заключенным с момента ознакомления и полного, беспрекословного принятия (акцепта) физическим лицом условий Оферты.

Выплата, произведенная Заёмщиком по страхованию риска невозврата Микрозайма, расценивается как акцепт Оферты.

1. ТЕРМИНЫ

1.1. В настоящей Оферте используются следующие понятия:

